

TARBIYA JARAYONI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI AHAMIYATI

*Odasheva Feruzaxon Mirzabaxramovna
ADU Umumiy pedagogika kafedrası
o‘qituvchisi*

Annatatsiya: Mazkur maqolada tarbiya tushunchasining mazmun va mohiyati ochib berilgan. Jumladan, jamiyat rivojlanishida tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Shuningdek, tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri badiiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, tarbiyaning ijtimoiy hayotga ta’siri talqin qilingan. Tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati, shaxsni kamol topishida tarbiyaning ôrni va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘z: Tarbiya, moddiy, ma’naviy intizom, qobiliyat, ruhiy, his-tuyg‘ulari, jamoatchilik, ijtimoiy.

Анна́тация: В данной статье раскрывается смысл и суть понятия образования. Среди них с научной точки зрения были проанализированы уникальные аспекты образования в развитии общества. Также художественно освещено влияние образовательного процесса на развитие общества. Также объясняется влияние образования на общественную жизнь, объясняется значение образования в жизни человека, роль и значение образования в развитии личности.

Ключевые слова: воспитание, материальное, нравственная дисциплина, способности, духовные, эмоциональные, общественные, социальные.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan etarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar etishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni - o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o‘quvchida jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq

keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko‘p qirrali jarayon ekanligi bo‘lib unda maktab, oila, bolalar va o‘smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kino-teatr, televideniye, adabiyot va san’at ishtirok etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxlab kelingan. Sho‘ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo‘ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o‘zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko‘rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o‘rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Sho‘rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo‘lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo‘lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo‘lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo‘nalishga solinishi mumkin bo‘lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekt bo‘lmish shaxs va uning o‘ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho‘ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchikovlik bilan o‘rganilayapti. Natijada, O‘zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo‘ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o‘rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doyr hodisa va holatlarni to‘g‘ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to‘g‘ri tayin etish imkonini berdi.

Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta’sirli narsa yo‘qdir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to‘g‘risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar. Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmi va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o‘zida kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib etishishlariga undagan.

Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “Bahr al-ulum”, “Kachko‘li sultoniy”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”,

“Hikoyoti dilpisand”, “Odob as-solihin”, “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundariyasi, ularda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Xitoy donishmandi Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma erda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant o‘z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi.

Tarbiya borasida Sa‘diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,
Tarbiya yuqmaydi, bo‘lmaydi odam.
Tarbiya ko‘rmayin ulg‘aysa kishi.
Eshak bo‘lib qolur yuzga kirsam ham.

Tarbiyaga e‘tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o‘z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e‘tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e‘tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”, deydi.

Alixonto‘ra Sog‘uniy tarbiya xususida shunday yozadi: “Yolg‘iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta‘lim-tarbiya ta‘siri ko‘z oldimizda ko‘rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O‘qitish-o‘rgatish buyon tursin, suhbat o‘zi ham, suhbatdoshlarga o‘t bilan suvdek tez o‘tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo‘ldoshlariga qarab baho beriladi”.

Ma‘lumki, ulug‘ mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg‘unligi masalasi alohida o‘rin tutadi. Allomaning “Tadbiri manzil” risolasida tarbiya masalasi ko‘proq tahlil etilgan. Xususan, “Tadbiri manzil”da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko‘nikmalar bilan tug‘ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, avvalgi ajdodlar an‘analari, ta‘lim-tarbiya o‘zgalarning ta‘siri ostida shakllanadi. SHaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo‘lsa, ma‘naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo‘lish shunchalik murakkabdir. Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma‘qul: “Bola tana bo‘g‘inlari barqaror bo‘lgan, uning tili to‘g‘ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o‘zgalar so‘zlarini qabul qilish hamda o‘rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o‘rgatib borish lozim”. Yuqoridagilardan shu narsa ma‘lum bo‘lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go‘zal axloq va ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ustoz-muallimlarning sa‘y-harakatiga ham bevosita bog‘liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish shartlarini bilish ham muhimdir.

Xulosa qilib aytikanda, faqatgina bor kishi uchun emas, insoniyat uchun tarbiyadan muhimroq tushuncha yôq. Xitoy donishmandi Syun-Szi "Chaqaloqlar bir xil yig'laydi. Katta bôlganida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu tarbiyaning oqibati" deb aytib ôtganlar. Kimnidir baholashda, biz uning tarbiyasi haqida fikr yuritamiz. Chin ma'nodagi yuksaklikka eltuvchi yôl tarbiyadan boshlanadi. Zero, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bôlmaydi. Yetuk inson darajasining ilk qadami tarbiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tûg'isida"gi Qonuni// "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. -T.: Sharq, 1997. B. 20-29 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. - T.: Sharq, 1997. B.31-61.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — T.: O'zbekiston, 1992. — 71 b.
4. Ziyoz